

**YOZUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK  
MASALALARI**

**Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna,**  
Termiz Davlat Universiteti tayanch doktoranti  
[abdurashidovaxafiza19@gmail.com](mailto:abdurashidovaxafiza19@gmail.com)  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14201249>

**Annotatsiya.** Ushbu tezis yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati, turli xil yondashuvlar va usullarning tasnifi va ulardan foydalanishning samaradorligi, yozuv kompetensiyasini rivojlantirishdagi metodlarning tavsifi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, til o'rganuvchiga grammatika va leksikaga oid strukturalarni o'rgatish bilan qatorda imlo va tinish belgilariga e'tibor qaratish lozimligi haqida qisqacha so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** yozuv kompetensiyasi, kommunikativ yondashuv, modellashtirilgan yozuv, yozma nutq, erkin yozuv, kommunikativ nutq kompetensiyasi

**Abstract.** This thesis is devoted to the importance of the communicative approach in developing writing competence, the classification of various approaches and methods and the effectiveness of their use, and the description of methods in developing of writing competence. In addition, it is briefly mentioned that language learners should pay attention to spelling and punctuation.

**Key words:** writing competence, communicative approach, modeled writing, written speech, free writing, communicative speech competence.

Hozirgi kunda chet tilida yozuv kompetensiyasini rivojlantirish bu xalqaro va milliy intixonlarning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun har bir til o'rganuvchisi yozuv kompetensiyani samarali o'zlashtirishi zarur. CEFR tavsiyalarini moslashtirish yo'llarini aniqlash uchun chet tillarni o'qitishning turli shakllari, metodlari va vositalarini joriy etish orqali til o'rganishning har bir bosqichini yaratish, boshqarish ishlari amalga oshirilgan. Bular o'qitishning innovatsion metodikalarini rivojlantirish, shuningdek, chet tillarini o'rganish, egallash darajasini baholash bo'yicha materiallar nashr etish, yuqori tilga olingan jarayonlar bo'yicha turli motivatsion tanlovlar o'tkazishga undaydi. Bu esa ta'lim sifatida platformani yaratishga imkon beradi. Buning uchun tillarning strukturasi va tipologiyasiga, til nazariyasining qiyosiy–tarixiy jihatlariga, bilingvizm muammolari va tasnifi haqidagi fikrlarga, tilshunoslikdagi eksperimentlarga, til o'rganishning qiyosiy metodlariga, komponent tahlildan komponent sintezga o'tishiga, CEFRni yaratish va joriy etishga qaratilgan ma'lumotlar tipologik bazasidan foydalanish iqtibollariga bag'ishlangan tilshunoslik sohasidagi adabiyotlar tahlil qilindi [4; 85-b].

CEFR tizimi asoschilaridan biri J.Trim til strukturalarini o'rganishning imkoniyati va darajalarini, kommunikativ nutq kompetensiyalarining o'ziga xosligi va maqsadini, ta'limning har bir bosqichida o'quvchilarning malakasini aniqlash bo'yicha takliflarni ishlab chiqdi; tildan foydalanish malakasini tenglashtirish ya'ni baholash imkoniyatlari va muammolarini ko'rib chiqdi; til va shevani o'rganish, o'rgatish va egallash darajasini baholash bo'yicha yo'riqnoma, "kommunikativ yondashuv" deb ataluvchi til o'rganish, o'rgatish va egallash darajasini baholashga yagona yondashuvning kutilayotgan ijobiy natijalarini tahlil qilib, har bir bosqich uchun standartlar va milliy standartlar yaratish tamoyillarini ishlab chiqdi [5; 250-b]

Yozma nutqni o'rgatishda yozuv materialini, yozuv ta'lim vositasi ekanligi, yozma ishlar kabi masalalar hal etiladi. Yozuv til materialini puxta o'zlashtirish, og'zaki nutq va o'qish malakalarini o'stirish hamda o'quv materialining o'zlashtirish darajasini tekshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Yozma ishlar va topshiriqlarni bajarish natijasida til o'rganuvchilari chet mamlakatdagi tengdoshlariga xat yoza olish malakasini egallaydilar [6;291-b].

Yozuv ko'nikmasini mahorat sifatida rivojlantirish har doim qiyin vazifa bo'lib kelgan. Yozuvning haqiqiy jarayonini talabalarga izchil yozishni, mos grammatika va leksik tuzilmalardan qanday foydalanishni, imloni qanday qo'llashni o'rgatishdir [2; 201-b].

Demak, nutq faoliyatining produktiv turi bo'lgan yozuv ko'nikmasi – bu murakkab yondashuv mahorati hisoblanadi, chunki til o'rganuvchiga grammatikaga leksikaga oid strukturalarni o'rgatish bilan qatorda imlo va tinish belgilariga e'tibor qaratish lozimligi o'rgatib boriladi.

Yozuv kompetensiyani rivojlantirishi uchun o'quvchilarga yozuv vazifalarini yaxshi tushunish va yondashishga yordam beradigan turli xil metodlarni, texnikalarni o'rgatish lozim.

Barcha jarayonlarda bo'lgani kabi, yozuvni rivojlantirishda talabalarni o'z fikrlarini yozma ravishda bayon etishga undash va ularni samarali yozuv bosqichlari haqida xabardor qilish uchun mo'ljallangan tizimli yondashuvni talab qiladi. Yozuvni rivojlantirishga turli metodikaga oid nazariyalar mavjud [3;202-b].

Uolter asosan modellashtirilgan yozuv usulini ma'qul ko'radi. Uning ta'kidlashicha, modellashtirilgan yozuv asosan o'qituvch namoyishiga asoslangan bo'lib, qayta ko'rib chiqish, qo'shish, savol berish, maqsadni aniqlashtirishni o'z ichiga oladi [2; 143-b].

Olshtain ham Uolterning yondashuvida bo'lgani kabi, modellashtirilgan yozuv muhimligini ta'kidlab o'tgan va "Controlled writing", "Guided writing", "Free

writing” deb nomlangan 3 bosqichli usullarni kiritdi. Erkin yozuv bosqichida talabalar turli xil topshiriqlarga javoban to‘liq matnlar ya’ni paragraflar, kompozitsiyalar, insholar yozishlari kerak ekanligini izohlab o‘tgan [1; 207-b].

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, chet tilini o‘rgatishda nutq faoliyat turlari va til materiallari muhim omil hisoblanib, ular yaxlit tarzda bosqichma-bosqich o‘rgatib borish zarur. Bundan tashqari o‘quvchiarning yozuv kompetensiyani rivojlantirishda grammatika ahamiyatga ega ekanligi va grammatikaga oid topshiriqlarni va metodlarni dars davomida qo‘llash orqali o‘quvchilarning yozuv ko‘nikmasini rivojlantirib borish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Андриянова В.И., Теория и практика обучения узбекских школьников устноречевому общению на русском языке: дисс. док. пед. наук, -Т., 1997.- С. 207.
2. Воробьев Г.А. Развитие социокультурной компетенции будущих учителей иностранного языка.- Пятигорск, 2003. –С.30-36.
3. Breen M.P. Learner Contributions to Language Learning: New Directions in Research, 2001.- P.240.
4. Выготский.Л. С. Психология. –М.: ЭКСМО-Пресс, 2002.- С. 85 .
5. Trim J.L.M. Common European Framework of Reference for languages: learning, teaching and assessment- Guide for Users, Language Policy Division, Council of Europe, Strasbourg, 2001.- P.250.
6. Available online: [http://www.coe.int/t/democracy/default\\_en.asp](http://www.coe.int/t/democracy/default_en.asp)
7. Shamshetova A.K., R.N.Melibayeva., X.E.Usmanova., I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma / –Toshkent: Barkamol fayz media, 2018.- B.291.